



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№7(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 232 sahifa,
25-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woosyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Imkoniyati cheklangan talabalarda jismoniy sifatlarni sport mashg'ulotlari yordamida rivojlantirishning afzalliklari	8
Davronov Rustam Iloxovich	
Использование фонетических игр и современных технологий в обучении русскому языку в общеобразовательных школах Узбекистана	15
Абумалик Муталлиевич Дедаханов	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish muammo va yechimlar	20
Qudratov O'ktam G'ofurovich	
The Role of Motivation in Learning English	25
Kamoldinova Mushtariybonu Azizbek qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	30
Axrarova Gulrux Gulamkadirovna	
Bo'lajak logopedlarda metakognitiv-dagnostik kompetentlikni rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	37
Suvankulova Shaxnoza Karimkulovna	
Ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvni amalga oshirish texnologiyalari	43
Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna	
Talabalarining texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari	48
Kushbakova Barno Batirkulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik fikrini shakllantirish	54
Arslanova Madinaxon Mansurovna	
O'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishda qoraqalpoq dostonlarining ahamiyati	59
Esemuratova Turganbike Aytmuratovna	
Talaba markazli yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	63
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha metodik xizmatni takomillashtirish	67
Rizayeva Munisxon Maxkamovna	
Generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari	71
Shodiyev Azizbek Olim o'g'li	
Shaxs kamolotida psixologik salomatlikning ahamiyati va asosiy ko'rsatkichlari	76
Xolova Yulduz Erkinovna	
Zamonaviy ta'lim paradigmasida fizika fanini o'qitish: virtual va to'ldirilgan borliq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining integrativ metodikasi	83
Zuhriddinov Farrux Faxriddin o'g'li	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	87
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual faolligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar	90
Djurakulova Munira Suyunovna	
Ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlarni takomillashtirish modeli hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri	97
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Народное творчество как великое сокровище интеллектуального воспитания	102
Матмуратова Гулистан Камалатдиновна	
Raqamli intellekt: o'quvchilarda mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish – davr talabi	108
Nishonova Muattarxon Alisherovna, Toirova Nafisa Muzaffar qizi	



Umumta'lim fanlaridan dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari.....	111
Toshmamatova Munisa Toshmamatovna	
Xorazm viloyatida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari (tumanlar kesimida)	115
Xo'jyozova Dildora Shonazar qizi, Dusanova Sharofat Baltaboyevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida innovatsion tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	121
Kadirova Dildora Najadbekovna	
The Integration of Artificial Intelligence in English Language Teaching: Opportunities and Challenges	125
Moxinur Yusupova	
Pragmatik-tizimli portfolio (PTP) texnologiyasi: talabalar reflektiv tafakkurini faoliyat dalillari asosida rivojlantirish.....	131
Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna	
Sog'lig'ida cheklovlari mavjud bolalar jismoniy va psixologik holatini takomillashtirishda yengil atletika mashg'ulotlarining ahamiyati	136
Hikmatova Nigoraxon Hasanboy qizi	
Art badiiy ta'limning rivojida klaster yondashuvi	140
A. S. Umarov	
Simulyatsion o'yin muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari.....	143
Turg'unova Mohinaxon Akmaljon qizi	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (empirik tadqiqot).....	150
Toshpolatova Robiya Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy mafkurani shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	154
Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Esanova Mehrgul Qurbanazarovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi dizartriyaning yengil shakliga ega 6-7 yoshli bolalardagi nutq kamchiliklarini o'yin texnologiyalari asosida korreksiyalashning samaradorligi.....	159
Baxadirova Zulfizar Azimbayevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ va ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni baholashning diagnostik vositalarini tanlash va qo'llash metodikasi.....	163
Abdullayeva Munojot Muxtorovna	
Talabalarni o'quvchilarning tibbiy tashxisiga mos pedagogik yondashuvlardan foydalanishga o'rgatish usullari.....	169
Yuldashova Iroda Dilshodovna	
Uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalar uchun ta'lim muassasalarining tashkil etilishi.....	174
Yusupjanova Shaxnoz Mirzatillayevna	
O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida raqamli STEAM muhitini joriy etish: o'qituvchilar tayyorgarligi va infratuzilma cheklovlari tahlili.....	178
Abdullayev Doston Sheraliyevich	
Bo'lajak maxsus pedagoglarning faol fuqarolik kompetensiyasining tarkibiy-mezonli modeli va rivojlanganlik darajalari	183
Sultonov Muxammadali Fayzulla o'g'li	
Совершенствование механизмов интеграции стратегического и функционального менеджмента на основе анализа деятельности государственных и международных филиалов вузов	189
A. M. Маргунов	
Решение педагогических проблем, возникающих при обучении письму леворуких учащихся начальных классов	194
Эгамбердиева Юлдуз	
Biologiya ta'limida generativ sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va metodik asoslari	198
Parmonova Marjona O'ktam qizi, Baybayeva Muxayyo Xudoyberganovna	

Bolalarda emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	204
Sherdanova Farangiz Raxmat qizi	
Zamonaviy televideniya suxandon nutqining tabiiyligi va auditoriya bilan ishonchli muloqot	208
Maxanbetova Dilnoza	
10-sinf kimyo darslarida "Spirtlar" bo'limini o'qitishda o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish metodikasi.....	211
Nazarova Yulduz Atamuratovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda ijodiy o'yinlardan foydalanish	215
Yuldasheva Shoxida Botirovna, Kurbanbayeva Moldir Abatbay qiz	
Milliy taraqqiyot g'oyalarida jadid ayollarining o'rni.....	220
Ergashova Mehriniso Husniddin qizi	
Mahalla – oila – ta'lim muassasasi hamkorligi.....	223
Muxtarov Utkirjon Mutalibjanovich, Abdusamatov Ozodbek	
Oliy ta'lim muassasalarida "Mikrobiologiya" modulini raqamli texnologiyalar asosida o'qitishning didaktik imkoniyatlari	227
Reymova Erkinay Atabayevna	

MILLIY TARAQQIYOT G'OYALARIDA JADID AYOLLARINING O'RNI

Ergashova Mehriniso Husniddin qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

Pedagogika yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadidchilik harakati doirasida shakllangan milliy taraqqiyot g'oyalari va ushbu jarayonda xotin-qizlarning tutgan o'rni tahlil qilinadi. Jadidchilik muhitida ayollarning ta'lim olishi, kasbiy shakllanishi, ijtimoiy faolligi va milliy uyg'onish jarayonidagi ishtiroki ilmiy jihatdan yoritiladi. Xususan, Dilorom Yusupova va Matluba Muhammadning hayot yo'li hamda faoliyati misolida ayol ziyolilarning ma'rifat, kasbiy taraqqiyot va jamiyat rivojiga qo'shgan hissasi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, jadidchilik g'oyalarining xotin-qizlarning ijtimoiy mavqei, dunyoqarashi va intellektual faolligiga ta'siri baholanadi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, jadid ayollari, milliy taraqqiyot, milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik, ayol ziyolilar, xotin-qizlar ta'limi, ijtimoiy faollik.

Abstract: This article analyzes the ideas of national development formed within the Jadid movement and the role of women in this process. Particular attention is given to women's education, professional development, social activity, and participation in the process of national awakening within the Jadid intellectual environment. Through the life and activities of Dilorom Yusupova and Matluba Muhammad, the study examines the contribution of educated women to enlightenment, professional advancement, and social development. The article also evaluates the influence of Jadid ideas on women's social status, worldview, and intellectual activity.

Key words: Jadidism, Jadid women, national development, national awakening, enlightenment, educated women, women's education, social activity, modernization.

Аннотация: В данной статье анализируются идеи национального развития, сформировавшиеся в рамках джадидского движения, а также роль женщин в данном процессе. Научно освещаются вопросы образования женщин, их профессионального становления, общественной активности и участия в процессе национального пробуждения в джадидской среде. На примере жизненного пути и деятельности Дилором Юсуповой и Матлубы Мухаммад рассматривается вклад женщин-интеллигентов в просвещение, профессиональное развитие и общественный прогресс. Особое внимание уделяется влиянию идей джадидизма на социальное положение, мировоззрение и интеллектуальную активность женщин.

Ключевые слова: джадидизм, женщины-джадиды, национальное развитие, национальное пробуждение, просветительство, женщины-интеллигенты, женское образование, общественная активность, модернизация.

KIRISH

XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakati milliy uyg'onish, ilm-ma'rifatni rivojlantirish, zamonaviy ta'limni shakllantirish hamda jamiyatni taraqqiy ettirishga qaratilgan muhim ijtimoiy-ma'rifiy hodisa sifatida tarixda alohida o'rin egallaydi. Jadidlar xalqning ma'naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirishni milliy taraqqiyotning muhim sharti sifatida baholaganlar. Mazkur jarayonda erkak ziyolilar bilan bir qatorda xotin-qizlarning ham ta'lim olishi, kasb egallashi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi va milliy o'zlikni anglash g'oyalarini targ'ib qilishi muhim ahamiyat kasb etgan. Tadqiqotlarda jadid ayollarining milliy uyg'onish, ma'rifiy yangilanish va madaniy taraqqiyot jarayonlaridagi ishtiroki alohida qayd etiladi.

Jadidchilik muhitida shakllangan ilg'or ayollarning hayoti va faoliyati o'sha davrda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni o'zgarib borayotganini ko'rsatadi. Ana shunday ziyoli ayollardan biri Dilorom Yusupova bo'lib, manbalarda u o'zbek huquqshunoslik maktabi rivojiga hissa qo'shgan ilk o'zbek huquqshunos ayollaridan biri sifatida tilga olinadi. Uning zamonaviy kasbiy ta'lim yo'lini tanlashi xotin-qizlarning ilm olishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkoniyatlari kengayib borayotganining muhim namunasi edi.

Shuningdek, Matluba Muhammad ma'rifatparvarlik, vatanparvarlik va milliy ozodlik g'oyalarini o'z faoliyatida namoyon etgan ilg'or o'zbek ayollaridan biri bo'lgan. Jadid muallimi Nurmuhammad Dadamuhamedov



oilasida voyaga yetgan Matluba Qo'qon va Toshkentdagi bilim yurtlarida, keyinchalik Moskvadagi O'zbek maorif institutida tahsil olgan. U Cho'lpon singari ziyolilar ta'sirida shakllanib, vatanparvarlik ruhida she'rlari bilan tanilgan. Keyinchalik siyosiy qatag'onga uchraganiga qaramay, oqlangach, tibbiyot sohasida faoliyat yuritib, xalq salomatligi yo'lida xizmat qilgan.

Shu nuqtai nazardan, jadid ayollarining hayot yo'li va ijtimoiy-ma'rifiy faoliyatini o'rganish milliy taraqqiyot g'oyalarining jamiyatda qanday namoyon bo'lganini chuqurroq anglash imkonini beradi. Dilorom Yusupova va Matluba Muhammad faoliyati misolida ayollarning ilm-ma'rifat, kasbiy rivojlanish, milliy o'zlik va jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasini tahlil qilish mazkur mavzuning ilmiy ahamiyatini belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jadidchilik harakati va uning milliy taraqqiyotdagi ahamiyati o'zbek hamda xorijiy tadqiqotchilar tomonidan turli yo'nalishlarda o'rganilgan. Mazkur masalani tadqiq etishda Begali Qosimovning jadidchilik va milliy uyg'onish davriga bag'ishlangan ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega. Olim jadidchilikni faqat adabiy yoki ma'rifiy hodisa sifatida emas, balki millat va Vatan manfaatlarini ko'zlagan keng qamrovli yangilanish jarayoni sifatida baholaydi. Uning tadqiqotlarida milliy uyg'onish davrini o'rganishda tarix, adabiyot, pedagogika, falsafa, huquq va boshqa sohalarining o'zaro hamkorligi zarurligi ta'kidlangan. Begali Qosimovning "Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik" asari jadidchilikning g'oyaviy asoslarini o'rganishda muhim ilmiy manbalardan biri hisoblanadi.

Xorijiy tadqiqotlarda ham Markaziy Osiyo jadidchiligining mohiyati va modernizatsiya jarayonidagi o'rni keng yoritilgan. Xususan, amerikalik tarixchi Adeeb Khalidning "The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia" asarida jadidchilik Rossiya imperiyasi hukmronligi sharoitidagi madaniy va ijtimoiy islohotchilik harakati sifatida tahlil qilinadi. Muallif jadidlarning ta'lim, savodxonlik, matbuot va yangi tafakkurni shakllantirish orqali jamiyatni isloh qilishga intilganini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqot jadidchilikning milliy taraqqiyot bilan bog'liq jihatlarini tarixiy va madaniy kontekstda tushunishda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi.

Jadidchilik tarixida xotin-qizlarning ishtirokini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar esa so'nggi yillarda faollashmoqda. Mazkur ishlarda ayollarning ta'lim olishi, kasb egallashi, ijtimoiy hayotga kirib kelishi va milliy uyg'onish jarayonidagi ishtiroki jadidchilikning muhim tarkibiy qismi sifatida baholanadi. Jumladan, jadid ayollari fenomeniga bag'ishlangan zamonaviy tadqiqotlarda xotin-qizlar ma'rifatparvarligi milliy uyg'onish, ijtimoiy modernizatsiya va ma'naviy transformatsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda tahlil etilgan.

Dilorom Yusupova va Matluba Muhammadning hayoti hamda faoliyatiga oid ma'lumotlar jadid xotin-qizlari va ular ta'sirida shakllangan yangi ziyoli ayollar qatlamiga bag'ishlangan ayrim ilmiy maqolalarda uchraydi. Xususan, L. Yusupovanning o'zbek jadid xotin-qizlari taqdiriga bag'ishlangan tadqiqotida Dilorom Yusupova va Matluba Muhammad boshqa ma'rifatparvar ayollar qatorida ko'rib chiqilib, ularning ta'lim olishi, ijtimoiy hayotdagi faoliyati hamda murakkab tarixiy sharoitdagi taqdiri yoritilgan. Shuningdek, ayol jadidlarning jadidchilik faoliyatidagi o'rniga bag'ishlangan tadqiqotda Matluba Muhammad va Dilorom Yusupova milliy uyg'onish, ta'lim va madaniy yangilanish jarayoniga aloqador ayol ziyolilar sifatida tilga olinadi.

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili jadidchilikning umumiy tarixi, uning ma'rifiy va milliy taraqqiyot g'oyalari yetarlicha keng tadqiq etilganini, biroq xotin-qizlarning ushbu jarayondagi individual faoliyati alohida tadqiqot obyekti sifatida hali ham chuqurroq o'rganishni talab qilishini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini tarixiylik, xolislik, tizimlilik va ilmiy izchillik tamoyillari tashkil etadi. Mavzuni yoritishda tarixiy-qiyosiy, biografik, manbashunoslik, retrospektiv hamda tahlil va sintez metodlaridan kompleks ravishda foydalanildi. Ushbu metodologik yondashuv jadidchilik harakati doirasida xotin-qizlarning ijtimoiy-ma'rifiy faolligi va milliy taraqqiyot jarayonidagi o'rnini tarixiy kontekstda baholash imkonini berdi.

Tarixiy-qiyosiy metod asosida XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-madaniy muhitida yuz bergan yangilanish jarayonlari hamda xotin-qizlarning ta'lim, kasbiy faoliyat va ijtimoiy hayotga jalb etilishidagi o'zgarishlar o'zaro qiyoslandi. Mazkur yondashuv orqali tadqiqot obyekti sifatida tanlangan ayol ziyolilarning faoliyatidagi umumiy jihatlar bilan bir qatorda, ularning individual rivojlanish yo'li va jamiyatdagi o'rniga xos xususiyatlar aniqlashtirildi.

Biografik metod yordamida tadqiqot qahramonlarining hayot yo'li, ta'lim jarayoni, kasbiy shakllanishi va ijtimoiy faoliyati muayyan tarixiy sharoit bilan bog'liq holda o'rganildi. Bunda individual taqdirlar orqali davrning ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy xususiyatlarini ochib berishga alohida e'tibor qaratildi. Retrospektiv yondashuv esa mazkur faoliyatning keyingi ijtimoiy va madaniy taraqqiyot jarayonlariga ta'sirini tarixiy izchillikda baholashga xizmat qildi.

Manbashunoslik tahlili doirasida mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, maqolalar, biografik ma'lumotlar va mavjud tarixiy materiallar tanqidiy jihatdan ko'rib chiqildi. Turli manbalarda keltirilgan ma'lumotlarni o'zaro solishtirish

orqali ularning mazmuniy uyg'unligi, ilmiy ahamiyati hamda tadqiqot mavzusini yoritishdagi o'rni belgilandi. Bu jarayonda ma'lumotlarning tarixiy kontekstga muvofiqligi va daliliy asoslanganligiga ustuvor ahamiyat berildi.

Tahlil va sintez metodlari yordamida jadidchilik g'oyalari, xotin-qizlar ma'rifatparvarligi, kasbiy shakllanish va ijtimoiy faollik bilan bog'liq ilmiy qarashlar umumlashirildi. Natijada ayol ziyolilar faoliyati milliy uyg'onish va modernizatsiya jarayonining tarkibiy qismi sifatida talqin qilinib, ularning jamiyatning intellektual, ma'rifiy va ijtimoiy taraqqiyotiga qo'shgan hissasini tizimli ravishda baholashga imkon yaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari XX asr boshlaridagi milliy uyg'onish va modernizatsiya jarayonlarida xotin-qizlarning ijtimoiy-ma'rifiy faolligi asta-sekin yangi mazmun kasb etganini ko'rsatadi. Jadidchilik muhitida shakllangan ta'lim, ma'rifat va ijtimoiy yangilanish g'oyalari ayollarning an'anaviy ijtimoiy mavqeini qayta ko'rib chiqishga hamda ularning jamiyat hayotidagi ishtirokini kengaytirishga xizmat qilgan. Bu jarayon, avvalo, xotin-qizlarning zamonaviy ta'lim olishi, muayyan kasbiy yo'nalishlarni egallashi va ijtimoiy faoliyatga kirib borishida namoyon bo'lgan.

O'rganilgan biografik materiallar ayol ziyolilarning shakllanishida oilaviy-ma'rifiy muhit, yangi usuldagi ta'lim va davrning ilg'or ziyolilari bilan aloqalar muhim o'rin tutganini ko'rsatadi. Mazkur omillar ularning dunyo-qarashida ma'rifat, milliy o'zlik, kasbiy rivojlanish hamda jamiyat oldidagi mas'uliyat tushunchalarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. Shu jihatdan, ayollarning ta'lim olishi individual taraqqiyot vositasi bo'libgina qolmay, balki milliy rivojlanishning muhim ijtimoiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'lgan.

Xususan, Dilorom Yusupovaning kasbiy shakllanishi ayollarning ilgari ular uchun cheklangan hisoblangan ijtimoiy va professional sohalarga kirib borish jarayonini aks ettiradi. Huquq sohasini egallashi xotin-qizlarning zamonaviy bilim va kasbiy malaka orqali davlat hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkoniyatlari kengayib borayotganini ko'rsatadi. Ushbu holatni milliy taraqqiyot g'oyalarining amaliy ko'rinishlaridan biri sifatida baholash mumkin, chunki jadidchilik mafkurasida jamiyatning yangilanishi bevosita ta'limli va faol inson omili bilan bog'langan edi.

Matluba Muhammad faoliyati esa mazkur jarayonning ma'rifiy, ijodiy va ijtimoiy jihatlarini namoyon etadi. Uning ta'lim olishi, vatanparvarlik ruhida qarashlari va jamiyat hayotidagi faoliyati yangi shakllanayotgan ziyoli ayol obrazining muhim xususiyatlarini ochib beradi. Ayniqsa, uning hayot yo'lida ta'lim, milliy ong va ijtimoiy mas'uliyatning uyg'unlashuvi kuzatiladi. Bu esa ayollarning milliy uyg'onish jarayonidagi ishtirokini faqat maishiy yoki oilaviy doira bilan cheklab bo'lmazligini ko'rsatadi.

Qiyosiy tahlil natijasida o'rganilgan ikki hayot yo'lida umumiy va farqli jihatlar aniqlandi. Umumiy jihat sifatida ularning zamonaviy ta'limga intilishi, kasbiy va intellektual rivojlanishga e'tibor qaratishi hamda ijtimoiy faollikka moyilligini ko'rsatish mumkin. Farqli jihatlar esa faoliyat yo'nalishlarida namoyon bo'ladi: biri huquqiy-professional sohada, ikkinchisi esa ma'rifiy, ijodiy va keyinchalik kasbiy faoliyat doirasida o'zini namoyon etgan. Bu holat milliy taraqqiyot g'oyalarining xotin-qizlar hayotida turli shakllarda aks etganini tasdiqlaydi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, mazkur ayol ziyolilarni faqat alohida biografik shaxslar sifatida emas, balki o'z davridagi kengroq ijtimoiy transformatsiyaning vakillari sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Ularning hayot yo'li xotin-qizlarning ta'lim, kasb va ijtimoiy mavqei borasidagi imkoniyatlari kengayib borayotgan murakkab tarixiy jarayonni aks ettiradi. Shu bilan birga, mavjud manbalarda ularning faoliyati bir xil darajada yoritilmagan: ayrim shaxslar haqida batafsil biografik ma'lumotlar mavjud bo'lsa, boshqalari haqida ma'lumotlar qisqa va fragmentar xarakterga ega. Bu esa mavzuni keyingi tadqiqotlarda arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari va biografik manbalar asosida yanada chuqur o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib ta'kidlash lozimki, tadqiqot natijalari jadidchilik muhitida shakllangan ma'rifiy va yangilanish g'oyalari xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi, ta'limga munosabati va kasbiy o'zini namoyon etishiga sezilarli ta'sir ko'rsatganini anglatadi. Ayol ziyolilarning faoliyati milliy taraqqiyotning faqat siyosiy yoki iqtisodiy omillar bilan emas, balki jamiyatning intellektual salohiyati, ta'lim darajasi va xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi ishtiroki bilan ham uzviy bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
2. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998.
3. Jamolova D. Turkiston jadidchilik harakatida xotin-qizlarning tutgan o'rni // Ilmiy axborotnoma. – 2022. – № 2 (132). – B. 43–45.
4. Yusupova L. U. O'zbek jadid xotin-qizlarining ibratli qismati biz uchun o'lmas saboqdir // Modern Science and Research. – 2024. – 3-jild, 6-son. – B. 1269–1274.
5. Kamp M. The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism. – Seattle: University of Washington Press, 2006.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.